

YOSHLARNI KITOB MUTOLAASIGA QIZIQISHINI SHAKLLANTIRISH ORQALI RIVOJLANTIRISHGA ERISHISH

Nargiza Mavlonova To'xtasin qizi
Namangan viloyati Mingbuloq tumani

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlar orasida kitobxonlikka bo'lgan qiziqishni shakllantirish orqali ularning intellektual va ma'naviy rivojlanishiga erishish masalalari yoritiladi. Kitob mutolaasining yosh avlod tarbiyasidagi o'rni, uni targ'ib qilishning samarali usullari va mavjud muammolar tahlil qilinadi. Muallif zamonaviy texnologiyalar fonida kitobxonlik madaniyatini oshirishga oid takliflarni ilgari suradi.

Kalit so'zlar: yoshlar, kitobxonlik, mutolaa, intellektual rivojlanish, ma'naviyat, ta'lim, targ'ibot.

Kirish. Butun dunyo ta'lim-tarbiya tizimida bo'layotgani kabita'lim kechimi insoniylashib, insonparvarlik birinchi planga chiqmoqda. Insoniyat yaralibdiki, izlanishda, rivojlanishda. Vaqt o'tgani sayin tashqi ko'rinishi, yashash sharoitining o'zgara borishida buni yaqqol ko'rib borayapmiz. Rivojlanish har qancha tashqi jihatimizga ta'sir qilmasin, qalb go'zalligi, soflik, samimiylikka intilishi aslicha qolaveradi. Ayni shu ma'naviyat sanaladi.

Yurtimizda ham ta'lim-tarbiya tizimida asl milliy qadriyatlarga tayanish tobora qaror topib bormoqda. Insoniy kamolotni ta'minlashda yoshlarning o'z ishtiroki, ularning bilim olish va tarbiyalash borasida bevosita qatnashish masalasi hamda dolzarb ahamiyatga ega. Aynan shu masala yuzasidan O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2017-yil 12-yanvardagi PF-4789-sonli "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitob mutolaasiga qiziqishlarini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi farmoyishi¹ yurtimizda inson ma'naviy taraqqiyotiga qo'yilgan poydevor bo'ldi.

Shundan so'ng 2019-yil 19-martdagi yurtboshimizning yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularni bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish borasida belgilab bergan 5ta muhim tashabbuslarining 6-yo'nalishi "Yoshlarni kitobga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish va kitobxonlik madaniyatini oshirish" deb belgilab bergan chora-tadbirlari ham kitobga bo'lgan qarashlarimizni tubdan o'zgartirmasligi lozim. Zero ko'p kitob o'qish dunyoqarashni kengaytiradi, lekin ko'p kitob o'qiganlar borliqni yaxshiroq anglashi, matnlarni yaxshiroq tushunishi ham ilmda isbotlangan. Farmoyishdan ko'zlangan maqsad yoshlar ongi va tafakkurida badiiy adabiyotga bo'lgan qiziqishni oshirish, ularni intellektual salohiyatli etib kamol toptirishdan iboratdir.

Ma'lumki, har qanday jamiyat taqdirini unda yashayotgan insonlar belgilaydi. Jamiyatni nurli kelajak sari yetaklash ham, tubanlik sari tortish ham odamlar qo'lida. Shuning uchun ham jamiyat a'zolari, ayniqsa, o'sib kelayotgan avlodning ma'naviy kamoloti bugungi kunda o'ta muhim masalaga aylangan. Yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risidagi"gi Qonunningⁱⁱ qabul qilinishi ham inson omilining hal qiluvchi ahamiyat kasb etganligidan dalolat.

Xalqimiz: "Bugun kitob o'qi, ertaga uning yog'dusida yashaysan", deb bejizga aytmagan. Psixologlarning aytishicha, bola dunyoning o'zi anglashtirib olgan holatidan

Kitob bu yo'lda vosita, tirgak bo'lib xizmat qiladi. Bu borada "Kishiga dunyoni ko'rmoq uchun ko'z berilgan, uni eshitmoq va sezmoq uchun quloq va sezgilar berilgan. Olamni bilish uchun esa, odamzodning tafakkuri bor. Inson dunyoga kelib, uni bilishga intiladi, ohanglarni eshitish, zavqlana bilish uchun musiqa o'rganadi. O'tmish bugunni yorqinroq tasavvur etish, ertani hayol bilan qamrash uchun bolalikdan yillab mehnat qilib savod o'rganadi, kitob o'qiydi. Chunki kitob insonga Alloh tomonidan mo'jizadek hadya etilgan tafakkurni yorituvchi mash'aldir.", degan edi Erkin Vohidov. Kitob insonning fikrlash, tahlil qilish, muloqot qilish va o'zini ifoda etish qobiliyatini oshiradi. Ayniqsa, o'smirlik davrida mutolaa bilan shug'ullangan yoshlar tengdoshlariga nisbatan analitik tafakkurga, boy lug'at boyligiga va ijodiy fikrlash salohiyatiga ega bo'ladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kitob mutolaasi bilan muntazam shug'ullanadigan o'quvchilar maktabda yuqori natijalarga erishadi. Masalan, PISA xalqaro baholash dasturi natijalariga ko'ra, kitobxon o'quvchilarning o'rtacha savodxonlik darajasi 20–25% yuqoriroq bo'lgan. Kitobxonlikka bo'lgan qiziqishning pasayish sabablari esa, so'nggi yillarda yoshlar orasida kitob o'qishga bo'lgan qiziqish sezilarli darajada kamaygan. Bunga bir necha omillar sabab bo'lmoqda:

- Raqamli texnologiyalar (telefon, ijtimoiy tarmoqlar)ning haddan tashqari ko'p ishlatilishi;
 - Kitob mutolaasini rag'batlantiruvchi tizimning yetarli emasligi;
 - Kitoblar dizayni va mazmunining yoshlar talabiga mos emasligi;
 - Ota-ona va o'qituvchilar tomonidan yetarlicha namuna ko'rsatilmasligi.
- Statistik ma'lumotlarga ko'ra, o'rta maktab o'quvchilarining 40% dan ortig'i oyiga atigi 1 ta yoki undan kam kitob o'qiydi.

Shunday ekan, qiziqishni oshirishning samarali usullari quyidagilar sanaladi:

- Interaktiv o'quv mashg'ulotlari: kitob asosida munozarali darslar, rolli o'yinlar.
- Rag'batlantiruvchi tizimlar: eng faol kitobxonlar uchun sovrinli tanlovlar.
- Zamonaviy dizayndagi kitoblar: infografikalar, illyustratsiyalar, qisqa mazmunlar.
- Kutubxonalar faoliyatini innovatsion yo'l bilan rivojlantirish.

- Mashhur shaxslar ishtirokida kitob tavsiyalari (bloggerlar, aktyorlar, sportchilar).
- Oila va maktab hamkorligini kuchaytirish.

Xulosa

Yoshlar orasida kitobxonlikka qiziqishni shakllantirish nafaqat ularning shaxsiy rivojlanishiga, balki butun jamiyatning intellektual salohiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu borada barcha ijtimoiy institutlar — oila, maktab, OAV va davlat tashkilotlari o'zaro hamkorlikda ishlashi zarur. Kitob — bu nafaqat bilim, balki tarbiya manbaidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 12-yanvardagi F-4789-sonli "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitob mutolaasiga qiziqisharini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi farmoyishi.
2. O'zbekiston Respublikasining 637-sonli "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr
3. Karimov, I. A. (1997). "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti.
4. Nazarova, M. (2022). Kitobxonlik va raqamli o'qish: integratsiya imkoniyatlari. "Ma'naviyat va zamonaviylik", (1).
5. Hasanova, D. (2020). O'zbekiston yoshlarining axborot iste'moli va kitobxonlikka munosabati. Axborot-kutubxona texnologiyalari jurnali, (2).
6. Shodmonov, S. (2021). Zamonaviy axborot muhitida o'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish yo'llari. Pedagogik ta'limda innovatsiyalar, (4).
7. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. (2022). Yoshlar o'rtasida kitobxonlik darajasini o'rganish bo'yicha tadqiqot hisobotlari. Toshkent.
8. O'zbekiston Yoshlar ittifoqi. (2023). *Yoshlarning kitob o'qishga munosabati* (Ijtimoiy so'rovnoma natijalari). Toshkent.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy sayti. (n.d.). <https://president.uz>

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 12-yanvardagi F-4789-sonli "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitob mutolaasiga qiziqisharini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi farmoyishi

²O'zbekiston Respublikasining 637-sonli "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr